

TASVIRIY SAN'AT FANIDA MANZARA CHIZISHNING
NAZARIY ASOSLARI

Madaminjonova Muxlisa Mahmudjon qizi

rizayevaqomarun0@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti"

"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'atning ajralmas qismiga aylangan manzara janri, manzara chizishning nazariy asoslari va ushbu janrda ijod qilgan rassomlarning asarlari haqida yoritilgan.

Kalitso'zlar:manzara, rassom, tabiat, janr, kartina, grafika, haykaltaroshlik, marina janri, rangtasvir

Annotation: *this article covers the landscape genre that has become an integral part of the visual arts, the theoretical foundations of landscape drawing and the works of artists who have created in this genre.*

Keywords: *landscape, artist, nature, genre, cartoon, graphics, sculpture, marina genre, painting*

Аннотация: *данная статья посвящена жанру пейзажа, который стал неотъемлемой частью изобразительного искусства, теоретическим основам пейзажной живописи и работам художников, работающих в этом жанре.*

Ключевые слова:*пейзаж, художник, природа, жанр, картина, графика, скульптура, жанр Марины, живопись*

Tasviriy san'atda manzara janrini o'рни va ahamiyati katta hisoblanadi. Manzara janrida asosan tog'u dengizlar tasvirlanadi. Manzara janrining paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Tabiat manzaralarini aks ettirish Xitoy rassomlik san'atida VI asrda paydo bo'lgan. Yevropa san'atida manzara janri mustaqil janr sifatida keng tarqaldi. Shuni aytib o'tish joizki XVII asrgacha tabiat manzarasi ko'rinishlari faqat mavzuli surat yoki portretlar uchun fon vazifasini o'tagan. Manzara janri mustaqil janr sifatida ajralib chiqqan bo'lsa unda ba'zan inson obrazini ham ko'rish mumkin. Atrof muhitni tasvirilayotgan rassom unda o'zi va zamondoshlarining tabiatga munosabatlarini ifoda etadi. O'zining ichki kechinmalarini bor hissiyotlarini jamlagan holda qo'lga mo'yqalam ushlab suratni boshlaydi. Bunda rassom tabiatning go'zalliklarini aks ettirgan holda uni go'zalliklarini, qushlarning sayrashini, daraxt barlarining shitirlashi, shamol esishi va turli xil gullarning iforini his qilgan holda tabiat bilan uyg'unlashib manzarasini boshlaydi. Tabiat manzaralari tasvirida rassomning dunyoqarashi, tabiatni idrok etishning ijtimoiy tarixiy milliy va uslubiy xususiyatlari o'z ifodasini topadi. Shunga ko'ra mashxur rassomlarning asarlarida manzara

motivlarining ulug'vor tasirli Shishkinning "Qarag'ay o'rmonidagi tong" kartinasini misol qilib keltirish mumkin.



Shishkin "Qarag'ay o'rmonidagi tong"

Ushbu asarda ranglar shartli ravishda berilgan. O'rmondagi bu tortta ayiqqa nazar soladigon bo'lsak o'rmondagi ranglar, daraxtlar, o'tlarning ranglari mujassam. Oldi plandagi narsa ranglari nisbatan to'q berilgan bo'lsa uzoqdagi daraxtlar esa ranglari ochroq berilgan bu esa asarni yanada tabiiy va haqiqiy ko'rsatadi.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin. Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I. Levitan, I. Shishkin, O'. Tansiqboyev, I. K. Ayvazovskiy, N. Karaxan kabilarni ko'rsatish mumkin. Manzara janrining ko'rinishlaridan biri bu interyer hisoblanadi. U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida uchraydi. Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perespektiva qonunlari asosida interyerni tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilib Jotto, A. Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar shuxrat qozonganlar. Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu marina janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I. Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san'atida munosib o'rinni egalladi.



“Ivan Aivazovskiy”ishlaridan namuna

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at faqat ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g‘oyaviy o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san’at insonning ruhiy qiyofasini, uning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va ichki his tuyg‘ularini ham yoritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Batrakova SP XX asr rassomi. va rasm tili. M., 1996 yil.
2. O‘chiruvchi B.R. San'at tarixiy tadqiqotiga kirish. M., Tasviriy san'at, 1985 yil
3. T. Kuziyev, S. Abdirasilov, O‘. Nurtoyev, A. Sulaymonov “Tasviriy san’at 5-sinf” Toshkent - “O‘zbekiston” – 2015 5, 6- b